

2025-yil davomida "O'zbekiston temir yo'llari" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	2024 yil 20-dekabr kuni "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi tomonidan Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Bugungi kunda jamiyat faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etish ishlarini yakunlash choralari ko'rilmogda.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi .	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari: 1) Call-markaz Ishonch telefoni - 71 237-99-98. 2) Elektron manzil: - admin@railway.uz faoliyati yo'lga qo'yilgan.
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi tomonidan 2024 yil 20-dekabr kuni Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Bundan tashqari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ da korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatini samaradorligini oshirish, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyat boshqaruv raisi tomonidan 2025-yil 10-fevralda 65-H sonli buyruq qabul qilingan.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida 2025-yil davomida Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmadi
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Tegishli ishlar olib borilmoqda.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlar loyihalarini o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlar loyihalarini o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, ularni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan yurudik deportament tomonidan tegishli ishlar olib borilmoqda.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	"O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2023 yil 27 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-329-sonli Qarorining ijrosini tadbiq qilish to'g'risida"gi 836-N-sonli buyrug'i xamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari, muassasalari va tashkilotlarining xaridlar tizimini tartibga solish va qo'shimcha daromadlarni ko'paytirish to'g'risida"gi 845-N-sonli buyrug'i qabul qilingan

9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi .	1. "O'zbekiston Temir Yo'llari" AJda joriy yilning 22-may kuni Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish yuzasidan davra suhbatlari o'tkazildi. 2. Raqobat qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan "Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqlashtirish" yo'nalishida 8 nafar xodim o'quv kursiga qatnashib bilim va ko'nikmalari oshirilgan. https://railway.uz/uz/gazhk/against_monopoly/news/detail.php?ID=37331
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	"O'zbekiston Temir Yo'llari" AJda xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini bilim darajasini aniqlash maqsadida joriy yilning 20-dekabr kuni 35 nafar masul xodimlar urtasida test sinovlari o'tkazildi.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi kompayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Joriy yilning 10-sentabr sanasida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruvi Raisining jamiyat xodimlariga murojati e'lon qilindi.